

BADIIY ASAR TARJIMASIDA IJODKOR USLUBINI QAYTA YARATISH VA MUTARJIM MAHORATI

Igamberdiyeva Shaxnoza

Farg'ona Davlat Universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o'qituvchisi

Turdaliyeva Dilnozaxon

Farg'ona Davlat Universiteti Lingvistika-ingliz tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy asarni tarjima qilish jarayonida muallif uslubini qayta talqin qilish, tarjimada ijodkor va tarjimon uslubi, badiiy asarlar tarjimasida yuzaga keladigan til muammolari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, badiiy asar, muallif uslubi, til muammolari, tarjimon mahorati*

Tarjima jarayoni necha ming yillardan buyon davom etib kelayotgan an'ana bo'lib, dunyo xalqlari hamisha unga ehtiyoj sezganlar. Mamlakatimizda tarjima nazariyasi va amaliyoti mustaqil filologik soha sifatida XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllandi, biroq uning tarixi ming yillarga borib taqaladi. Qariyb ikki ming yil avval yunonistonlik Liviy Andronik buyuk Gomerning "Odisseya" sini lotin tiliga o'girgani [1.1] tarjimachilik maktabining juda qadim davrlarga borib yetishini anglatadi. Tarjima insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, u orqali biz bashariyat tarixi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. U dunyo xalqlari orasida qardoshlik, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy, adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qilganini guvohi bo'lamiz. Shuning uchun ham tarjima ko'p asrlik tarixga ega ekanligini anglash qiyin emas. Biroq shunisini ham aytish joizki, tarjima san'at obidasi sifatida asl nusxa matni bilan hech qachon tenglasha olmaydi degan mulohazalar ham mavjud. Chunki qayta tarjima qilingan asar asl nusxa o'rnini bosa olmaydi. Biroq shuni dadil ayta olamizki, asarni original matnda o'qiydiganlarga nisbatan tarjimada o'qiydiganlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Ehtimol yer yuzida keng tarqalgan tillar, masalan ingliz, rus, tillarida ijod qiladigan adiblar uchun bu narsa unchalik sezilmas, ammo tarjima bo'lmaganida dunyo Xaldour Laksness, Leon Kruchjovskiy, chex adibasi Mariya Puymanovani asarlaridan bahramand bo'la olarmidi? Daniyalik Andersen ertaklari ham tarjima tufayli jahon xalqlarining xazinasidan joy oldi. Jahon klassik adabiyoti xazinasida shunday asarlar borki, ular "o'lik" tillarda yaratilgan obidalar bo'lib, tarjima orqali bizgacha yetib kelgan. Buyuk Gomer hamda Sofokl kitoblarining asl nusxasini mutolaa qilishga qodir filolog mutaxassislar barmoq bilan sanarli. Xolbuki ular tufayli dunyo xalqlari tillariga tarjima qilingan "Iliada", "Shoh Edip", "Odisseya" kabi durdonalar nafaqat o'zi tegishli bo'lgan xalqning, balki butun jahon xalqlari ma'naviy hayotini bezaydi. Tarjima badiiy va lug'at faoliyatining turidir. Tarjima xarakteridan kelib chiqqan holda badiiy, ilmiy, rasmiy, publisistik singari turlarga bo'linadi. Badiiy tarjima tarjimashunoslikning

salmoqli qismini egallaydi. Badiiy tarjimani soʻz sanʼati deyish mumkin. Tarjimon esa sanʼatkor. Badiiy tarjimada uslub, kolorit, maʼno, poetika asosiy oʻrinni egallaydi. Shuning uchun badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning oʻzi kifoya qilmaydi, mutarjim ijodkorlik isteʼdodi hamda badiiy mahorat kabi sifatlarga ega boʻlmogʻi kerak. Tarjima asliyatni qayta yaratish qayta talqin etish sanʼatidir.[1.2] Badiiy asar tarjiimasi juda murakkab jarayon boʻlib, alohida yondashuv va masʼuliyat talab etadi. Badiiy asar tarjimasiga qoʻl urgan tarjimon ikki tilni mukammal bilishi, uni his etishi, badiiy qonuniyatlarga tishi oʻtmogʻi kerak. Nasrda turli oʻxshatishlar, badiiy tasvir vositalari bilan ish koʻrilsa, nazmda qofiya, vazn, ohangdorlik, muammolari koʻndalang boʻladi. Badiiy asarning va tarjimonning boshqa xalq va millatlar ichida shuxrat topishi ham tarjimonning isteʼdodi va mahoratiga bogʻliq. Tarjimon milliy adabiy asarni oʻz tili adabiy muhitiga koʻchirar ekan, original asar muallifi koʻzlagan maqsadni his qilgan holda amalga oshirishi zarur. Badiiy tarjima shuning uchun ham sanʼatki, tarjimon biron soʻz yoki iboraning tarjimasini shundoqligicha tekstdan olib koʻchirib qoʻymaydi, chunki lugʻat baʼzi hollarda asarda voqelik tasvirlanayotgan vaziyatni ifoda etish uchun oʻz oʻzida oʻzlashtirish qiladi. Ana shunday paytda tarjimon uchun ijodning eng yoqimli azobi boshlanadi: u lugʻatda yoʻq soʻzni qidira boshlaydi.[2.1.]

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarjima amaliyoti tufayli dunyo xalqlari adabiyoti boyib boradi, kitobxonning maʼnaviy dunyosi kengayadi, badiiy didi yuksaladi. Mamlakatlar oʻrtasida ijtimoiy-siyosiy, adabiy aloqalar rivoj topadi. Keng maʼnoda ilm-maʼrifat ulashuvchi vosita boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tarjuma sanʼati. Maqolalar toʻplami. 1980. b 23
2. Q. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. 2005 b 90.
3. K. Joʻrayev. Tarjima sanʼati. Toshkent. 1982.